

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI

11/2023

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University



11/2023



Karimov R.A., Hamroyeva G.I.	Mark Tvenning “Geklberri finning boshidan kechirganlari” asarida yozuvchi tili va uslubining mualliflik korpusi orqali tahlili	132
Djumabayeva J., Madiyorova V.	Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asaridagi lingvomadaniy konseptlarning tarjimasi	137
ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
Qosimova N.F.	Asliyat matnni tarjimada qayta yaratishning kognitiv tamoyillari	142
Kilicheva M.R., Sharopova Sh.Sh.	Robert Kiosakining “Boy ota, kambag’al ota” asari misolida self-help janrining xususiyatlari	148
Zaripova D.B.	Huvaydo ijodida adabiy ta’sir	153
Hamdamova S.B., Makhmudova U.B.	Charting the unexplored: colonial echoes and environmental impact on personal growth in “Robinson Crusoe” and “Life of Pi”	158
Maxmudova M.M.	Sadriddin Salim Buxoriy ijodida Sharq-u g‘arb mavzusining o’rni	163
Naimova A.M.	“Tashqi vaqt” va “ichki vaqt” dinamikasi Salman Rushdi romanii poetikasida	168
Nuritdinova Sh.S.	Bolalar she’riyatida ekologik tarbiya: tabiatning jamiyatga munosabati ifodasi	173
Шербекова Г.Я.	Маросим қўшиқларида Бухоро никоҳ тўйи удумларининг бадиий ифодаси	179
Abdullayeva L.S., Hasanova M.V.	The role of synchronous translation in literary studies	184
Hamdamova S.B., Ochilova D.S.	Harmonizing nature and self: Walt Whitman’s poetic tapestry of romanticism	191
Nazarova G.P., Davronova R.	The usage of symbols in Khaled Hosseini’s “a thousand splendid suns”	196
Qodirova S.A.	“Zarbulmasal” nashri va maqol matni muammolari	200
Khajieva F.M., Rakhimova Sh.R.	Exploring identity fragmentation: an in-depth analysis of selfhood in Colum Mccann’s “Transatlantic”	205
Qodirova R.S.	Dilbitiklar va adabiy ertaklarga xos xususiyatlar	210
Niyazova M.Kh., Qo’shayeva F.A.	Problems of the period in the works of Charles Dickens	214
Сайдуллаева Р.И.	Ономастика в художественной литературе: эволюция и социокультурная характеристика персонажей	218
Пардаева Д.Р.	Эпоха Амира Темура в зеркале русской литературы: типологический анализ	223
Jalilova L.J., Jurayeva D.R.	Historical development of fairy tales	228
Safarova Z.T., Berdiyeva S.U.	G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asari inglizcha tarjimasida milliylikning ifodalananishi	233
Ganieva O.Kh., Ashurova N.A.	Mr. Potter romanida bosh qahramon ruhiy olami tasvirida muallif mahorati	237

Qodirova Saodat Abduraximovna,

Buxoro davlat universiteti Boshlang'ich ta'lif kafedrasiga
katta o'qituvchisi, f.f.f.d. (PhD), Buxoro shahri, O'zbekiston
s.a.qodirova@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada Muhammad Sharif Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarini qo'lyozma nusxalari, nashri hamda keltirilgan maqollarining matnidagi tafsirlar ko'rsatilgan. "Zarbulmasal" asarining H.Yoqubov, S.Dolimov va F.Is'hoqov tomonidan nashr etilgan nusxalari o'rtasida ba'zi farqlar mavjudligi, ushbu farqlar asarning matniga tegishli ekanligi, xususan, asarning turli nashrlarida maqollarining matnida qator farqli o'rinalar ko'rindi. Maqolada asarning uchala nashridagi maqollar matni qiyoslangan.

Kalit so'zlar: asar, maqol, syujet, mazmun, qahramon, moziy, dialog, nashr, qo'lyozma, nusxa.

"ЗАРБУЛМАСАЛ" ПУБЛИКАЦИЯ И ПРОБЛЕМЫ С ТЕКСТОМ ПОСЛОВИЙ

Аннотация. В данной статье показаны рукописные копии и редакции произведения Мухаммада Шарифа Гюльхани «Зарбулмасал», а также различия в тексте цитируемых пословиц. Между экземплярами «Зарбулмасала», изданными Х.Якубовым, С.Долимовым и Ф.Ишаковым, имеются некоторые различия, которые связаны с текстом произведения, в частности, в тексте имеется ряд разных мест. пословиц в разных изданиях произведения. В статье сравнивается текст пословиц во всех трех редакциях произведения.

Ключевые слова: произведение, пословица, сюжет, содержание, рассказ, диалог, публикация, рукопись, копия.

"ZARBULMASAL" PUBLICATION AND PROVERB TEXT PROBLEMS

Abstract. This article shows the manuscript copies and editions of Muhammad Sharif Gulkhani's work "Zarbulmasal" and the differences in the text of the quoted proverbs. There are some differences between the copies of "Zarbulmasal" published by H.Yakubov, S.Dolimov and F.Ishakov, these differences are related to the text of the work, in particular, there are a number of different places in the text of proverbs in different editions of the work 'looks. The article compares the text of proverbs in all three editions of the work.

Key words: work(written work), proverb, plot(subject), content(meaning), hero, moral story, dialogue, publication, manuscript, copy.

Kirish. Gulxaniy va uning ijodi A.Qayumov, M.Sale, Fitrat, B.Karimov, R.Muqimov, F.Is'hoqov, M.Qo'shjonov, M.Qo'shamoqov, A.Asrarov, S.Dolimov, H.Yoqubov va boshqa olimlar tomonidan o'r ganilgan. Uning "Zarbulmasal" asari XIX asrning 80-yillarida rus olimlarining diqqatini tortdi. 1890-yili Qozon universiteti bosmaxonasida nashr qilindi. Bu qimmatli asar rus tiliga ham tarjima qilinib, xalqning diqqat-e'tiboriga sazovor bo'lgan. 1951-yilda M.Sale tomonidan ikkinchi marta rus tiliga tarjima qilinadi. M.Sale sho'rolar davridagi nusxasidan foydalangan. 1948-yilda samarqandlik adabiyotshunos R.Muqimov Gulxaniy va uning adabiy merosi haqidagi ishlarini jamlab, "Gulxaniyning hayoti va adabiy faoliyati" mavzusida nomzodlik dissertasiyasini yoqladi. Gulxaniy ijodini ilmiy jihatdan baholashda H.Yoqubovning Gulxaniy asarlari nashriga yozgan kirish so'zi, akademik V.Abdullayevning "O'zbek adabiyoti tarixi" darsligidagi adabiy portreti, akademik A.Qayumovning "Qo'qon adabiy muhiti" monografiyasida Gulxaniy hayoti va ijodiga ajratilgan o'rinalarning, O'zFA haqiqiy a'zosi M.Qo'shjonov va tilshunos olma X.Nazarovaning "Zarbulmasal"ning badiiy xususiyatlari, tili va uslubini o'rganishga doir ishlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. "Zarbulmasal"ning qo'lyozma va nashr nusxalari va asardagi maqollarining tadrijiy takomilini ilmiy tadqiq etishdan iborat. Tadqiqot mavzusini yoritishda analitik, qiyosiy-tipologik, tasniflash, tavsiflash, tarixiy-qiyosiy, kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari va uning g'azallari H.Yoqubov tomonidan keng miqyosda o'r ganilib, 1960-yilda ikkinchi marta nashr etilgan. Bu kitob 71 sahifadan iborat bo'lib, kirish qismida Gulxaniyning qiyinchilik bilan o'tgan hayot yo'li, o'sha davr

LITERARY CRITICISM

insonlariga xos illatlar aks etgan qimmathi “Zarbulmasal” asari va g‘azallardan tashkil topgan. Kitobda “Zarbulmasal” asarining tushunish qiyin bo‘lgan so‘zlari, ibora yoki ifodalar, maqollar tarjimasi sahifa oxirida berilgan. Ayrim arabcha, forscha so‘zlar tarjimasi kitobning oxirida lug‘at qismida berilgan. H.Yoqubov bu asar haqida quyidagicha fikr bildiradi: “Gulxaniy asarlari hali juda kam o‘rganilgan, u chuqr o‘rganilishi va puxta izohlanishi lozim. Gulxaniyning nashr etilayotgan bu asarini o‘qigan dunyo kitobxonlari o‘zbek xalqi satirik prozasining o‘tmishdagi eng yaxshi namunasi bilan tanishadilar. “Zarbulmasal” (“Yapaloqqush hikoyasi”) oddiy xalq orasidan chiqqan yozuvchi Gulxaniyni – Qo‘qon xonligidagi feodallar tabaqasining murosasiz dushmani, uni fosh etuvchi kishi, umr bo‘yi oddiy xalq bilan birga bo‘lgan va uning manfaatini kuylagan yozuvchi ekanligini ko‘rsatadi”.

“Zarbulmasal” asari H.Yoqubov tomonidan ikkinchi marta nashr etilgan. U Gulxaniyning badiiy merosini chuqr o‘rganib tahlil qilgan. Asarda ishlatilgan maqollarni ham tushunarli tarzda tarjima qilgan. H.Yoqubov “Zarbulmasal” asarida Gulxaniy mustabid xonga yoki tekinxo‘r feodallarga qarshi kurashuvchi, to‘laqonli xalq qahramonini yarata olmagan, lekin XVIII-XIX asrlardagi feodal jamiyatdagi hukmron sulolalarning yaramas urf-odatlarini fosh qila olgan deb hisoblaydi.

1972-yilda S.Dolimov tomonidan “Zarbulmasal” asari qayta nashr etildi. S.Dolimov “Zarbulmasal”ni o‘quvchilarning saviyasiga moslab qayta ishlagan. “Zarbulmasal” asarining tili, xususan, iboralar, ifodalar, unda ishlatilgan maqollar ancha murakkab. Shuningdek, unda arabcha va forscha so‘zlar, tojikcha iboralar, maqollar ham ko‘p uchraydi. Bu esa o‘quvchiga asarning mohiyatini to‘laqonli anglab yetishida, xalq og‘zaki ijodi namunalarini tushunib, to‘g‘ri talqin qilishda, kerakli xulosalar chiqarib hayotga tatbiq etishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham S.Dolimov muharrirligidagi nashrda o‘quvchilarga tushunish yengil bo‘lishi uchun asarning oxirida arabcha, forscha va ba’zi o‘zbekcha so‘zlarning lug‘ati, asarning har sahifasi oxirida qiyin jumlalar, ibora va ifodalarning ma’nosini berilgan. Tojikcha keltirilgan maqollar tarjima qilib berilgan. Bu esa o‘quvchilar tushunmagan so‘zlarning tarjimasini kitobning lug‘at bobidan, qiyin ibora, ifodalarning ma’nosini har sahifaning oxirida berilgan izohlardan topishlariga imkon beradi.

S.Dolimov asarning kirish qismida: “Gulxaniy “Zarbulmasal” asarida o‘z davrining eng aktual masalalarini badiiy ifodalab berdi. Feodal sinfining chirib borishi, bu sinf xulq-atvorining tanazzuli, mamlakatning vayronligi “Zarbulmasal” asarida allegorik obrazlarda o‘z ifodasini topgan. Xususan, hayotiy obrazlar, realistik sahnalar, xarakterli portretlar (Yapaloqqush, Boyqush, Sho‘ranul, Ko‘rqush, Kordon va boshqalar), hajviy bo‘yoqlar, falsafiy muhokamalar – bularning hammasi masalning eng muhim estetik fazilatidir”, – deb yozadi.

“Zarbulmasal” asarining yana bir qancha nusxalari bor. Jumladan, 1972-yilda ko‘chirilgan nusxasi Bobur nomidagi Andijon viloyat kutubxonasining qo‘lyozmalar bo‘limida saqlanadi. Yana uchtasi (1871, 1873-yillarda ko‘chirilgan nusxalar va bir sanasi yo‘q qo‘lyozma) Qo‘qondagi G‘afur G‘ulom nomli adabiyot muzeysiда saqlanadi. Yana ikki qo‘lyozma marhum adabiyotshunos olim Buyuk Karimiyo qo‘lida saqlangan bo‘lib, shu nusxalar asosida u bir vaqtlar asarning tanqidiy matnini tuzgan, lekin matn nashr qilinmay qolib ketgan. Asarning dastlabki litografik nusxalari esa 1890- va 1896-yillarga tegishlidir. Gulxaniyshunoslikda matnshunos, manbashunos, tilshunos olim Fathiddin Is‘hoqovning amalga oshirgan ishlari, ilmiy tadqiqotlari diqqatga sazovordir. F.Is‘hoqov Gulxaniy davriga oid barcha manbalarni jamlab, “Zarbulmasal” asarining barcha nusxalarini qiyosan o‘rganib, uning tanqidiy matnini tayyorladi va 1974-yilda “Zarbulmasal” asarini Toshkentda qayta nashr ettirdi. Asar 76 sahifadan iborat bo‘lib, “Zarbulmasal”ning olti qo‘lyozmasi va o‘ndan ortiq bosma nusxalarini qiyoslab chiqish va ularni ilmiytanqidiy asosda o‘rganishlar natijasida bosma qilingan. Olim o‘zining 20-25 yillik umrini Gulxaniy ijodini o‘rganishga bag‘ishladi. Bu borada Gulxaniy va uning adabiy merosi haqidagi bir qancha salmoqli risolalari, maqolalari e‘lon qilingan. F.Is‘hoqov 1997-yil 16-dekabrda “Gulxaniy “Zarbulmasal”ining ilmiy-tanqidiy matni” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. U o‘z tadqiqotlarida Gulxaniy hayoti va adabiy merosini o‘rganish jarayonida boshqalar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatoliklarni tuzatdi, adibning taxallusi, qismati, qushlar obrazini noto‘g‘ri nomlash, asarning janriy xususiyatlarini belgilash borasidagi noto‘g‘ri talqinlarga aniqlik kiritadi.

F.Is‘hoqovning ilmiy asarlarida “Zarbulmasal” xalqchil nasrning o‘ziga xos namunasi ekanligi, asarning g‘oyaviy-badiiy dunyosi chuqr tahlil qilinadi. Uning ishlariда, ayniqsa, “Zarbulmasal”ning til xususiyatlari keng ko‘lamda o‘rganildi. Asarning muqaddima qismida u Umarxonning amri, istagi bilan yozilganligi aytildi. Adabiyotga homiy bu siymo xalq orasida keng tarqalgan zarbulmasallarni – xalq maqollarini chuqr o‘ylab, kitob holiga keltirish lozimligini aytadi hamda Gulxaniyni shu nozik xizmatga loyiq deb topadi.

LITERARY CRITICISM

Nashr etilgan kitoblardagi ba’zi bir maqollar o‘rtasida katta farq bo‘lsa, ba’zilarida esa u qadar farqlanmaydi. Masalan, H.Yoqubov va S.Dolimov nashrlarida “Bor maqtansa topilur, yo‘q maqtansa chopilur” tarzida berilgan bo‘lsa, F.Is’hoqov nashrida “Bor maxtansa topilur, yo‘q maqtansa, chopilur” shaklida berilgan. H.Yoqubov va S.Dolimov nashrlarida *maqtanmoq* fe’li boshqa maqollarda ham shu tarzda uchraydi, lekin F.Is’hoqov nashrida *maxtanmoq* tarzida ishlatilganligini ko‘rishimiz mumkin. Birinchi va ikkinchi nashrlarda “Maqtangan qiz to‘yda uyalar”, “O‘zini maqtag‘oni o‘limning qorovuli” maqollari ham shular jumlasiga kiradi. Uchinchi nashrda esa shu maqollar “Borlikdan maxtanma, maxtangan qiz to‘yda (uyalur)”, “O‘zini maxtagani o‘lumni qorovuli” tarzida berilgan. Shuningdek, “Ko‘r tutganini qo‘ymas va kar eshitganini qo‘ymas” maqoli to‘liq shaklda H.Yoqubov va S.Dolimov nashrlarida keltirilgan bo‘lsa, F.Is’hoqov nashrida “Ko‘r tutganini va kar eshitganini qo‘ymas” deb qisqa qilib berilgan. H.Yoqubov va S.Dolimov nashrlarida berilgan maqollar deyarli bir xil ishlatilgan, u qadar katta farq mavjud emas. Lekin ba’zi maqollarida S.Dolimov so‘zlarining tarixiy shakllarini ishlatgan. Masalan, H.Yoqubovda “Ebi bilan so‘zlaganning qurboni bo‘l” shaklida, S.Dolimovda “Ebi birlon so‘zlaganning qurboni bo‘l” shaklida berilgan. Bu maqolda farq faqat *ilan* va *birlon* so‘zlari orqali ko‘rinib turibdi. F.Is’hoqovda esa maqol mazmuni ham o‘zgaradi: “Ebi bilan (kulganni) qurboni bo‘l” shaklida beriladi. “Sichqon sig‘mas iniga, g‘alvir bog‘lar dumiga” maqoli uch nashrda uch xil shaklda uchraydi. H.Yoqubovda *g‘alvir* so‘zi *g‘albir* tarzida, S.Dolimov nashrida *iniga, dumiga* so‘zi *inig‘a, dumig‘a* tarzida, F.Is’hoqov nashrida esa “Sichqon iniga sig‘mas, dumiga g‘albir bog‘lar” shaklida qo‘llanilganligini ko‘rishimiz mumkin. Umuman olganda, bu kabi maqollar orasidagi farqni *ilan* so‘zlarining *birla, bila, birlon* shakllarida ishlatilishida, kelishiklarning har xil qo‘llanilishida (bittasida –*ning* tarzida, boshqasida –*ni* shaklida), *g‘* va *g* harflarining ishlatilishida ko‘rishimiz mumkin. Bu farqlar maqol matnining shaklini o‘zgartirgan, xolos. Maqol matnidagi mazmunga ta’sir etmagan. Bugungi kunda ham ushbu maqollar deyarli shu shaklda ishlatiladi.

Yuqorida uchta nashr o‘rtasida katta farq ko‘rinadigan maqollar ham uchraydi. Masalan, H.Yoqubov va S.Dolimov nashrlarida “Uydagi so‘z bozorg‘a rost kelmas” maqoli F.Is’hoqov nashrida “Uydagi savdo bozorga rost kelmas” ko‘rinishida uchraydi. Bu yerda ikkala nashrda so‘z deb ishlatilsa, aslida F.Is’hoqov keltirgandek *savdo* so‘zi ishlatilishi kerak. Bundan ko‘rinib turibdiki, F.Is’hoqov “Zarbulmasal”dagi barcha maqollarni oldingi nashrlar bilan solishtirib, qiyoslab eng to‘g‘ri variantni taqdim etadi.

Yuqorida uchta nashr o‘rtasida katta farq ko‘rinadigan maqollar ham uchraydi. Masalan, H.Yoqubov va S.Dolimov nashrlarida “Uydagi so‘z bozorg‘a rost kelmas” maqoli F.Is’hoqov nashrida “Uydagi savdo bozorga rost kelmas” ko‘rinishida uchraydi. Bu yerda ikkala nashrda so‘z deb ishlatilsa, aslida F.Is’hoqov keltirgandek *savdo* so‘zi ishlatilishi kerak. Bundan ko‘rinib turibdiki, F.Is’hoqov “Zarbulmasal”dagi barcha maqollarni oldingi nashrlar bilan solishtirib, qiyoslab eng to‘g‘ri variantni taqdim etadi.

Yuqorida uchta nashr o‘rtasida katta farq ko‘rinadigan maqollar ham uchraydi. Masalan, H.Yoqubov va S.Dolimov nashrlarida “Uydagi so‘z bozorg‘a rost kelmas” maqoli F.Is’hoqov nashrida “Uydagi savdo bozorga rost kelmas” ko‘rinishida uchraydi. Bu yerda ikkala nashrda so‘z deb ishlatilsa, aslida F.Is’hoqov keltirgandek *savdo* so‘zi ishlatilishi kerak. Bundan ko‘rinib turibdiki, F.Is’hoqov “Zarbulmasal”dagi barcha maqollarni oldingi nashrlar bilan solishtirib, qiyoslab eng to‘g‘ri variantni taqdim etadi.

1-jadval.

№	H.Yoqubov nashri (1960)	F.Is’hoqov nashri (1974)
1	Oshuqg‘on qiz erga borsa, yorchimas va teshik munchoq yerda qolmas	Oshuqg‘on qiz erga borsa, yorgimas va teshik to‘lchoq yerda qolmas
2	Po‘lat pichoq qinsiz qolmas	Fo‘lod pichoq qinsiz qolmas
3	Bosh eson bo‘lsa, do‘ppi topilur	Bosh eson bo‘lsa, to‘ppi topilur
4	Ayoz haddingni bil, barchani qo‘y, o‘zingni bil!	Ayoz haddingni bil, barchani qo‘y, o‘zungni bil!
5	Taanniy rahmondin va ta’jil shaytondin	Taanniy rahmondin va ta’jil shaytondin
6	Daraxtni o‘zga joyga o‘rnatsalar ko‘karmas	Bemahal niholni o‘zga yerga o‘rnatsalar, ul ham ko‘karmas

Jumladan, birinchi satrda keltirilgan maqollarda *munchoq* va *to‘lchoq* so‘zlar farqlanadi. Ikkinci satrda keltirilgan maqolda *po‘lat* so‘zining tarixiy shakllari turli xil ko‘rinishda (fonetik o‘zgarish bilan) *po‘lat* va *fo‘lod* shaklida keltirilgan. Uchinchi satrda *do‘ppi* va *to‘ppi* so‘zlar, to‘rtinchil maqolda o‘zingni/o‘zungni so‘zlar fonetik o‘zgarish bilan uchrasa, oltinchi maqolda sintaktik struktura o‘zgargani seziladi: **Daraxtni** o‘zga **joyga** o‘rnatsalar ko‘karmas // **Bemahal niholni** o‘zga **yerga** o‘rnatsalar, ul ham ko‘karmas. Avvalgi maqoldagi bitta so‘z (daraxt) keyingi maqolda so‘z birikmasi (**Bemahal niholni**) bilan ifodalangan. Ko‘rinadiki, ushbu o‘zgarishlar maqollarning mazmuniga ta’sir qilmagan, ammo turli nashrlarda turli shakllarda uchragan.

Shuningdek, S.Dolimov va H.Yoqubov nashrlarida keltirilgan, ammo F.Is’hoqov nashrida tushib qolgan maqollar ham anchagina. Bu maqollar har ikkala nashrda ham bir xil keltirilgan, ular matnida o‘zgarishlar mavjud emas.

2-jadval.

№	H.Yoqubov nashri (1960)	S.Dolimov nashri (1972)
1.	Yumruq bukulub sang bo‘lmas, echki yugurib	Yumruq bukulub sang bo‘lmas, echki yugurib lang

LITERARY CRITICISM

	lang bo‘lmas (Musht bukilsa ham tosh bo‘lolmaydi, echki esa yugursa ham, cho‘loq bo‘lmaydi)	bo‘lmas (Musht bukilsa ham tosh bo‘lolmaydi, echki esa yugursa ham, cho‘loq bo‘lmaydi)
2.	Kesgon oshg‘a o‘xsharmu yovg‘on bo‘lomuq	Kesgon oshg‘a o‘xsharmu yovg‘on bo‘lomuq
3.	Yaxshilar topib so‘zlar	Yaxshilar topib so‘zlar
4.	Avval taom, so‘ngra kalom	Avval taom, so‘ngra kalom
5.	Yolg‘iz otni changi chiqmas, changi chiqsa ham dong‘i chiqmas	Yolg‘iz otni changi chiqmas, changi chiqsa ham dong‘i chiqmas
6.	Har bir ishda maslahat lozim, maslahatsiz ish yaxshi emas.	Har bir ishda maslahat lozim, maslahatsiz ish yaxshi emas.
7.	Bo‘ynida illati borning oyog‘i qaltiraydi	Bo‘ynida illati borning oyog‘i qaltiraydur
8.	Qarindoshim qora qozonim	Qarindoshim qora qozonim
9.	Ko‘rpangga qarab oyoq uzat	Ko‘rpangga qarab oyoq uzat
10.	Eshak yo‘li qotqoqda emas, botqoqda ma’lum bo‘lur	Eshak yo‘li qotqoqda emas, botqoqda ma’lum bo‘lur
11.	Yomon otga yol bitsa, yoniga to‘sueq bog‘latmas, yomon erga mol bitsa, yoniga qushni qo‘ndirmas	Yomon otga yol bitsa, yoniga to‘sueq bog‘latmas, yomon erga mol bitsa, yoniga qushni qo‘ndirmas
12.	Ota so‘rab netarsan, erning o‘zi bo‘lg‘on so‘ng, yo‘l so‘ragan nomarddur, ot ustina mingan so‘ng	Ota so‘rab netarsan, erning o‘zi bo‘lg‘on so‘ng, yo‘l so‘ragan nomarddur, ot ustina mingan so‘ng
13.	Bo‘zchi belboqqa yolchimas	Bo‘zchi belboqqa yolchimas
14.	Xayr ishiga jarchi bo‘lsang, malul bo‘lma	Xayr ishiga jarchi bo‘lsang, ma’lul bo‘lma

H.Yoqubov tomonidan nashr etilgan “Zarbulmasal” asarida “Taom yemoqqa hozir, maslahatga aqli qosir”, “Eshakning fe‘li egasiga ma’lum” maqollarini uchratishimiz mumkin. Bu maqollar S.Dolimov va F.Is’hoqov nashrlarida tushirib qoldirilgan, ularning o‘rnida boshqasi ham ishlatilmagan.

“Hunar xalqning hamyonini to‘ldiradi”, “Hunarsiz kishini eshak yag‘iri – nodon, ahmoq derlar” maqollari esa faqat S.Dolimov nashrida berilib, qolgan nashrlarda esa hech qayerda uchramaydi. F.Is’hoqov nashrida boshqa nashrlarda mayjud bo‘lмаган bir qancha maqollar berilgan. Ular quyidagilar:

1. “Otolmagan sapqon ham boshqa tegar, ham (ketga)”
2. “Turkni turtmaguncha bilmas”
3. “Itini oti – marjon, egasini oti – kaljon”
4. “Ko‘r xalqini tili achchiqlig‘i beti tuklukdin emish”
5. “Beti tukluni yuziga boqma”
6. “Chekishmaguncha birikishmas”
7. “Taxirni ofati bor”
8. “Suq to‘ymas, o‘g‘ri boyimas”
9. “Xayr ishiga dalolat qilg‘uchi savobga sherik”
10. “Har oyina o‘z jinsidin”
11. “Kishini kishisi bo‘lsa ham to‘ppini yerga qo‘yub kengashur”
12. “Ketingga boq, nog‘ora qoq”
13. “Nasl-nasabdin oriy kishilar vifoq-nifoqdin nori kishilar”.
14. “Qum yig‘ilib tosh bo‘lmas, qul yig‘ilib bosh bo‘lmas”
15. “Qul qutursa, quduqg‘a (tuflar)”
16. “Qul bo‘lsun, qulog‘i yog‘liq bo‘lsun”
17. “Qul bilan quymoq yesang – qusturmay qo‘ymas, cho‘ri bilan chalpak yesang (qaytarmay) qo‘ymas”
18. “Yerman degan ko‘b yer, ko‘b yerman degan oz yer”
19. “Aldatsang ham yoshqa aldat”
20. “El yamoni mang‘it, qush yamoni ang‘it”
21. “Bilumsiz bilagi yo‘g‘on birni urar, bulumluk bilagi ingichka borchani farosat birla sinar”
22. “Yaxshi rafiq birla yursang, saodat toparsan va yamon rafiq shaqoyat dalilidur”
23. “Yoreki ahldur – ani ishi sahldur”
24. “Qiz qarisa qozi bo‘lur, (kimga desa) rozi bo‘lur”

LITERARY CRITICISM

25. “Har kimning toyi bor, ko‘nglida gumoni bor”
26. “Chaynamayin yeganlar kovshamayin ketarlar”
27. “(Ketingga) boq, nog‘ora qoq”
28. “Itni kallasini siylasang, tabaqda turmas”
29. “Zo‘rning (keti) tegurmon yurutur”
30. “Har kim o‘z boshini qashlar”
31. “Pulingni berib sof qildim deb munkir bo‘lubdur”
32. “Eshakni fe’li egasiga ma’lum”
33. “Yalg‘on aytса bo‘lur – aytguchi dono bo‘lsa”
34. “Bek uldurki, olmag‘ay – bergay, qora uldurki, sochmag‘ay – tergay”
35. “Kundabozni oxirig‘a boq”
36. “Arzon molni sho‘rbasi tatusas”
37. “Ot tobinda, er qoninda”
38. “Kurashsang, otang bo‘lsa ham yiqit”.

“Zarbulmasal” o‘zbek adabiyotining qiziqarli syujetga ega, xalqchil yozilgan, majoziy xarakterdagi eng nodir manbasidir. Unda xalqimizning urf-odatlari, o‘tmishi, milliy qadriyatları, til xazinasi o‘z ifodasini topgan.

Xulosa. Ko‘rinadiki, bu nashrlar orasida F.Is’hoqov nashrida boshqa nashrlarda uchramagan 38 ta maqol keltirilgan. Demak, F.Is’hoqov tomonidan nashr etilgan “Zarbulmasal” asari boshqa nashrlardan maqollarning to‘liq (ko‘p) keltirilgani bilan ajralib turadi. Ko‘pgina maqollar boshqa nashrlarda tushirib qoldirilgan, F.Is’hoqov bu maqollarni o‘z nashrida to‘laligicha aks ettirgan. Ba’zi maqollar bugungi kunda ham xalq orasida keng miqyosda ishlatilsa, ba’zilari esa kam ishlatilib, so‘zlashuv nutqidan chiqib ketish arafasida, boshqalari esa umuman ishlatilmay nutqdan chiqib ketgan. Bunday boy meroslarimiz mana shunday kitoblarda uchraydi, xolos. Xalq maqollarining mohirona tarzda “Zarbulmasal” asarida qo‘llanilishi va buni kelajak avlod to‘laligicha o‘rganishi uchun F.Is’hoqov tomonidan o‘rganilib, maqollarning to‘laligicha berilgan “Zarbulmasal” asari eng yaxshi nashrlardan hisoblanadi. O‘quvchilar tushunishi yengil bo‘lganligi uchun ham boshqa nashrlardan farq qiladi. Maqol matni va nashrdagi ko‘rinishida farq qiladigan maqollarimiz bir qancha. Masalan, “Bilumsiz bilagi yo‘g‘on birni urar, bulumluk bilagi ingichka borchani farosat birla sinar” maqoli xalq orasida “Bilagi zo‘r birni yiqar, bilimi zo‘r mingni” tarzida ishlatiladi, yoki boshqa variantlari ham bor. Nashrda maqolning faqat bitta eng ko‘p ishlatiladigan matni keltiriladi, uning boshqa variantlari yozilmaydi. Xalq og‘zaki ijodida esa xalq tomonidan turli variantlari ishlatilaveradi.

ADABIYOTLAR:

1. Sabitova T. Muhammadsharif Gulxaniy asarlarining o‘zbek mumtoz adabiyotida tutgan o‘rni. – Pedagogik ta’lim klasteri: muammo va yechimlar // <https://cyberleninka.ru/article/n/muhammadsharif-gulxaniy-asarlarining-o-zbek-mumtoz-adabiyotida-tutgan-o-rni/viewer>
2. Ёқубов. Гулханий Зарбулмасал ва газаллар. ЎзССР давлат бадиий адабиёт нашириёти. Тошкент – 1960. 16 с
3. Долимов С. Зарбулмасал. Ўқитувчи нашириёти. Тошкент – 1972. – 4-б.
4. Исҳоқов Ф. Зарбулмасал. Адабиёт ва санъат нашириёти. Тошкент – 1974. – 8-б.
5. Кодирова С. А. Жанровые особенности "Зарбулмасала" //современная наука: актуальные вопросы, достижения и инновации. – 2021. – С. 97-99.
6. Saodat K. Ancient proverbs //European Scholar Journal (ESJ) ISSN. – С. 2660-5562.
7. Qodirova, S. (2023). “Зарбулмасал” адабиётишунослар баҳсида. Центр научных публикаций
8. Qodirova, S. (2023). “Devonu lug’otit turk” va “Zarbulmasal” asarlarida qo’llanilgan maqollarning qiyosiy-tipologik tahlili. Центр научных публикаций
9. Кодирова, С. А. (2023). Мақол ва матал жсанрининг шеъриятдаги ўрни ва аҳамияти. Science and Education, 4(2), 1667-1671.
10. Qodirova, S. (2023). “Devonu lug’otit turk” va Zzarbulmasal” asarlarida qo’llanilgan maqollarning qiyosiy-tipologik tahlili. Центр научных публикаций
11. Qodirova, S. (2022). Бошлангич синфларда масал жсанрини ўрганишида “Зарбулмасал” нинг ўрни ва аҳамияти. Центр научных публикаций
12. Qodirova, S. (2022). Мақолларни тўплаши ва улардан фойдаланиши жараёни. Центр научных публикаций.